

**ZOOMORFIK METAFORALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI
VA TARJIMA STRATEGIYALARI****Buriyeva Shaxodat Baxriddinovna***Axborot texnologiyalari va menejment universiteti**Lingvistika (ingliz tili) magistratura talabasi*buriyevash1234567890@gmail.com**MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 13.02.2026**Revised: 14.02.2026**Accepted: 15.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***zoomorfik metafora,
lingvokulturologiya,
milliy mentalitet,
metafora tasnifi, tarjima
strategiyalari,
konseptual metafora,
ekvivalentlik, madaniy
konnotatsiya.**Maqolada o'zbek, rus va ingliz tillaridagi zoomorfik metaforalar lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinadi. Hayvon obrazlari orqali shakllangan metaforik modellarning milliy-semantik xususiyatlari, baholovchanlik darajasi va madaniy konnotatsiyalari o'rganiladi. Tadqiqotda metaforalarning tipologiyasi, ekvivalentlik darajalari, nonekvivalent birliklar hamda tarjima strategiyalari aniqlanadi. Natijalar xalq mentalitetiga xos madaniy kodlarning til orqali qanday uzatilishini ko'rsatadi.*

Kirish. Zoomorfik metaforalar til va madaniyat o'rtasidagi eng faol lingvokulturologik vositalardan biri bo'lib, ular orqali xalqning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlar va mental stereotiplari obrazli shaklda ifodalanadi. O'zbek, ingliz va rus tillarida hayvon nomlari asosidagi metaforik birliklarning semantik hajmi, baholovchanlik xususiyatlari va madaniy konnotatsiyalari keskin farq qilishi ularning lingvokulturologik tadqiqotini yanada dolzarb qiladi. Masalan, bo'ri obrazi o'zbek mentalitetida jasorat ramzi bo'lsa, ingliz tilida u xavf va

tajovuz timsoli sifatida qabul qilinadi; fox/лиса/tulki esa uch tilning barchasida ayyorlik bilan bogʻlangan boʻlsa-da, baholovchanlik darajasi turlicha talqin qilinadi.

Tadqiqotning maqsadi zoomorfik metaforalarni lingvokulturologik jihatdan tasniflash, ularning milliy-semantik qatlamini ochib berish hamda tarjima jarayonida uchraydigan madaniy muammolarni aniqlash va samarali strategiyalarni asoslashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq tadqiqotning vazifalari sifatida metaforalarning konseptual asoslarini aniqlash, uch til materialida ularning qiyosiy-semantik tahlilini oʻtkazish, ekvivalentlik va nonekvivalentlikni belgilovchi omillarni aniqlash hamda tarjima strategiyalarini tizimlashtirish belgilandi. Tadqiqot materiali sifatida badiiy adabiyot, paremiologik birliklar, lugʻatlar va korpus materiallari tanlandi. Metod sifatida konseptual metafora nazariyasi, qiyosiy tahlil, kognitiv va lingvokulturologik tahlil usullari qoʻllandi.

Zoomorfik metafora — hayvon obraziga asoslangan metaforik birlik boʻlib, u insonning xarakteri, psixologik holati yoki ijtimoiy rolini hayvonlarga xos xususiyatlar orqali tushuntiradi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan, zoometafora konseptual metaforaning muhim koʻrinishlaridan biri boʻlib, inson ongining asosiy kategoriyalash mexanizmini ifodalaydi. Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasiga koʻra, inson murakkab abstrakt tushunchalarni konkret tajriba asosida anglaydi va ularni manba soha (hayvon) hamda nishon soha (inson) oʻrtasidagi mapping orqali kategoriyalashtiradi. Shuning uchun “tulki – ayyorlik”, “boʻri – jasorat”, “quyon – qoʻrqoqlik” kabi metaforalar inson xulqini sodda, tanish va universal obrazlar orqali ifodalaydi. Lingvokulturologik yondashuvda esa zoomorfik metaforalar madaniyatning ramziy tizimini aks ettiruvchi konseptlar majmuasidir. Har bir hayvon obrazi tarixiy xotira, folklor motivlari, diniy tasavvurlar va milliy qadriyatlar bilan boyigan boʻlib, ularning metaforalarda qoʻllanishi tasodifiy emas. Masalan, oʻzbeklar uchun ot — sharaf va sadoqat timsoli, rus madaniyatida ayiq — kuch va qoʻpollik ramzi, ingliz madaniyatida esa burgut — erkinlik belgisi sifatida shakllangan. Bu farqlar har bir tilning metaforik tizimini oʻziga xos qiladi. Zoomorfik metaforalar madaniy kodlarni saqlaydi, milliy identitetni mustahkamlaydi va kommunikativ jarayonda maʼnaviy-estetik yuk tashuvchi vosita sifatida faoliyat qiladi.⁷¹

Zoomorfik metaforalar semantik, funktsional va lingvokulturologik xususiyatlarga koʻra bir necha turlarga ajratiladi. Birinchi guruh — xarakterga oid metaforalar, yaʼni shaxsning ichki sifatleri hayvon obrazlari orqali ifodalanadi: boʻri – jasur; tulki – ayyor; quyon –

⁷¹ Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2004. – 477 с.

qo‘rzoq; qo‘y – yuvosh; ilon – xiyonatkor. Bu metaforalar insonning xulqiy sifatlarini stereotiplashtirishga xizmat qiladi va xalqning axloqiy mezonlarini aks ettiradi. Ikkinchi guruh ijtimoiy rollar bilan bog‘liq metaforalar. Bu tipdagi metaforalar shaxsning jamiyatdagi o‘rni, mavqei yoki kasbiy faoliyatini hayvon obrazi orqali ifodalaydi: shark – agressiv biznesmen, bo‘ri – yetakchi, qo‘y – itoatkor jamoa a‘zosi. Bunday metaforalar ijtimoiy munosabatlarning obrazli modelini yaratadi.

Uchinchi guruh — emotsional-baholovchi metaforalar, ya‘ni insonning ichki kechinmalari hayvon xatti-harakatiga qiyoslanadi: itday achchig‘lanmoq, qarg‘aday qichqirmoq, bo‘riday o‘kramoq. Ular ekspressivlikni kuchaytiradi va nutqqa emotsional rang bag‘ishlaydi. To‘rtinchi guruh mifologik-ramziy metaforalar bo‘lib, ular xalq afsonalari, urf-odatlar va diniy timsollar asosida shakllangan: ilon — yovuzlik, bo‘ri — homiylik, burgut — osmon hukmdori, ot — muqaddas kuch. Bu metaforalar madaniy xotiraning eng chuqur qatlamlariga borib taqaladi va jamiyat ongida barqaror semantik strukturalarni tashkil etadi.

Turli tillarda hayvon obrazlarining konseptual xaritasi bir xil emas. Buning sababi tarixiy xotira, folklor, xo‘jalik faoliyati, tabiat sharoitlari va diniy-mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi zoomorfik metaforalar ko‘p hollarda chorvachilikka asoslangan hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lib, ot, qo‘y, bo‘ri kabi obrazlar eng faol qo‘llanadi. Otning sharaf va vafodorlik timsoli sifatida qabul qilinishi turkiy xalqlarning ko‘chmanchi madaniyatiga borib taqaladi. Tulki obrazi esa o‘zbek ertaklaridagi ayyor qahramon sifatida shakllangan. Rus tilida esa ayiq, bo‘ri, tulkilar bilan bog‘liq metaforalar kuchli madaniy yukga ega. Ayiq obrazi qahramonlik va qo‘pollikni birlashtirgan ambivalent timsoldir. Rus folkloridagi hayvonlar obrazi ko‘proq tabiatning yovvoyiligini aks ettiradi. Ingliz tilida esa bull, pig, chicken, shark, eagle kabi metaforalar keng tarqalgan bo‘lib, ularning semantikasi ko‘proq iqtisodiy faoliyat, protestant etikasi va individualizm bilan bog‘liq. Masalan, eagle — erkinlik va qudrat timsoli, shark — agressiv biznes strategiyasi, pig — tartibsizlik yoki beandishalik ramzi. Ushbu farqlar turli xalqlarning hayvonot bilan real munosabati, tarixiy sharoitlari va mental stereotiplarining barqarorlashuvi natijasida yuzaga kelgan. Natijada har bir tilning zoomorfik konseptual xaritasi o‘ziga xos bo‘lib, tarjima jarayonida muhim madaniy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilidagi zoomorfik metaforalar milliy dunyoqarashning eng barqaror lingvomadaniy qatlamini tashkil etadi. Ot obrazi sharaf, vafodorlik, matonat va erk timsoli bo‘lib, “otdek sadoqatli”, “otning qadrini bilmoq”, “otning jilovi qattiq” kabi metaforalar

=====

xalqning ko'chmanchi tarixiy merosi bilan bog'liq. Bo'ri obrazi o'zbek mentalitetida mardlik, jasorat va erkinlik ramzi bo'lib, "bo'ri yurak", "bo'riday o'kramoq" kabi ifodalar epik an'analarning davomidir. Tulki esa hiyla, aqldan mohirona foydalanish va ayyorlikni bildiradi; folklorda tulkilar ko'pincha vaziyatni o'z foydasiga buruvchi qahramon sifatida tasvirlanadi. Quyon qo'rzoqlik, ehtiyotkorlik va zaiflik metaforalarini shakllantirsa, ilon xiyonat, makkorlik, xavf ramzi sifatida talqin qilinadi. Qarg'a esa o'zbek ongida salbiy omen, baxtsizlik belgisi sifatida aks etadi. Bu obrazlarning barchasi tarixiy, mifologik va xo'jalik an'analari bilan shakllangan.

Rus tilidagi zoomorfik metaforalar slavyan mifologiyasi, o'rmon ekologiyasi va pravoslav madaniyati bilan bog'liq bo'lib, hayvon obrazlarining semantik diapazoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. "Волк" obrazi rus madaniyatida salbiy – yovvoyilik va xavf bilan bog'liq bo'lsa-da, ayrim folklor matnlarida jasorat yoki mustaqillik sifatida ham uchraydi. "Лиса" ayyorlikning eng barqaror timsoli bo'lib, rus ertaklarida u mohir manipulyator sifatida gavdalanadi. "Медведь" esa eng ambivalent obrazlardan biri: bir tomondan, qo'pol, sekin, qo'rqinchli, ikkinchi tomondan esa kuchli, bag'rikeng va "xalqona" tabiatni ifodalaydi. "СВИНЬЯ" obrazi tartibsizlik, beandishalik, axloqsizlik kabi salbiy xususiyatlarni bildiradi. Ushbu obrazlar rus xalqining o'rmon hayvonlari bilan tarixiy aloqasi va ularning madaniy ongida tutgan o'rnini aks ettiradi.⁷²

Ingliz tilidagi zoomorfik metaforalar ko'proq individualizm, iqtisodiy faoliyat, protestant etikasi va zamonaviy shahar madaniyati bilan bog'liq. "Eagle" – erkinlik, qudrat, nazorat ramzi bo'lib, amerika milliy identitetida alohida semantik yukga ega. "Bull" tajovuzkorlik, kuch va qat'iyatni bildiradi; ayniqsa, iqtisodiy kontekstda "bull market" ijobiy iqtisodiy o'sishni anglatadi. "Pig" ifloslik, beandishalik yoki haddan tashqari ochko'zlikni ifodalaydi. "Fox" ayyorlik ramzi sifatida umumiy ma'noga ega, biroq ingliz kontekstida ba'zan jozibadorlik yoki aqlli rejalashtirish bilan bog'lanadi. "Chicken" qo'rzoqlikni bildiradi, "shark" esa agressiv raqobatchi yoki biznes olamidagi talabchan shaxsni ifodalaydi. Ushbu metaforalar ingliz tilining pragmatik yo'nalganligini namoyon etadi.

Zoomorfik metaforalar ko'pincha uch til orasida to'liq ekvivalentlikka ega bo'lmaydi. To'liq ekvivalent metaforalar: fox – лиса – tulki (ayyorlik), chicken – quyon (qo'rzoqlik) kabi birliklar, garchi baholovchanlik darajasi biroz farq qilsa-da, asosiy semantik yadrosi bir xil. Qisman ekvivalent metaforalar bo'lib, ularda asosiy sema mos keladi, biroq

⁷² Телия В. Н. Русская фразеология: семиотика, семантика и прагматика. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 284 с.

konnotatsiya yoki stilistik qatlam boshqacha bo'ladi: wolf – волк – bo'ri uchligida ingliz va rus tillarida salbiy, o'zbek tilida esa ijobiy ma'no ustun. Nonekvivalent metaforalar esa tarjimada eng murakkab qatlam bo'lib, ularning madaniy bo'shlig'i mavjud: masalan, ingliz tilidagi "eagle" ning milliy ramziy kuchi yoki rus tilidagi "медведь" ning kollektiv ong'dagi ambivalent o'rni o'zbek tilida to'liq ekvivalentga ega emas. Bunday o'rinlarda tarjima strategiyalari – funksional ekvivalent, deskriptiv tarjima yoki kompensatsiya – qo'llanadi.⁷³

Zoomorfik metaforalarni tarjima qilish jarayonida eng murakkab masala — madaniy kodlarni to'liq saqlab qolishdir. Har bir millat hayvon obrazlarini o'z tarixiy tajribasi, geografik sharoiti, diniy qarashlari va folklor an'analari asosida shakllantiradi. Natijada bir til uchun ijobiy yoki neytral bo'lgan obraz boshqa tilda mutlaqo salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun metaforani to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish ko'pincha semantik buzilish, noto'g'ri baholovchanlik yoki stilistik nomutanosiblikka olib keladi. Masalan, ingliz tilidagi eagle metaforasi erkinlik, qudrat, yuksaklik ramzi bo'lsa, o'zbek tilida bu obraz o'sha darajadagi madaniy kuchga ega emas. Yoki o'zbek tilidagi bo'ri — jasorat modeli rus yoki ingliz mentalitetiga mos kelmaydi, chunki bu tillarda bo'ri asosan xavf va yovvoyilik timsoli sifatida qabul qilinadi. Shu sababli milliy obrazlarning tarjimada yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi asosiy tarjimaviy muammolardan biri hisoblanadi. Bunday holatlarda metaforaning tashqi shaklini emas, balki uning semantik yadrosi, madaniy konnotatsiyasi va funksional maqsadini saqlash muhimdir. Aks holda tarjima matnida obrazning mazmuniy yuklamasi yo'qoladi, o'quvchida esa mutlaqo boshqa tasavvur shakllanadi. Zoomorfik metaforalarni samarali tarjima qilish uchun tarjimashunoslikda bir nechta strategiyalar qo'llaniladi.

To'g'ri ekvivalent (literal) tarjima – metafora ikki tilda deyarli bir xil semantik maydonga ega bo'lganda qo'llanadi. Masalan, fox — лиса — tulki (ayyorlik) kabi birliklarda literal tarjima mazmuniy xatolarga olib kelmaydi.

Semantik moslashtirish (adaptatsiya) – madaniy konnotatsiya boshqa tilda mos ekvivalent orqali beriladi. Masalan, o'zbekcha bo'riday jasur ingliz tilida brave as a lion shaklida berilishi mumkin, chunki lion ingliz madaniyatida jasorat ramzi.

Funksional ekvivalent yaratish – metaforaning kommunikativ maqsadi saqlanadi, ammo obraz o'zgaradi. Masalan, quyon yurak metaforasi o'rniga ingliz tilida coward so'zi qo'llanilishi mumkin.

⁷³ Чернейко Л. О. Семантика и метафора в современном языке. – М.: Флинта, 2010. – 312 с.

Tavsifiy tarjima (deskriptiv usul) – metafora madaniy jihatdan nonekvivalent bo‘lsa, uning ma’nosi izohlab beriladi. Masalan, otning qadrini bilmoq — “to respect loyalty and honor as symbolized by the horse”.

Kompensatsiya strategiyasi – yo‘qolgan madaniy ma’no matnning boshqa joyida ekvivalent emotsional yoki stilistik vosita orqali qoplanadi. Bu strategiya ayniqsa badiiy tarjimada qo‘llanadi.⁷⁴

Zoomorfik metaforalarni to‘g‘ri talqin qilish va tarjimada madaniy kodeyni saqlab qolish tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasiga bevosita bog‘liq. Tarjimon faqat til birliklarini emas, balki ular ortidagi mental stereotiplar, madaniy ramzlar, tarixiy konnotatsiyalarni ham bilishi lozim. Madaniy konnotatsiyani anglash tarjima sifatining eng muhim komponentlaridan biridir, chunki metafora mazmunining katta qismi aynan konnotativ maydonda yashiringan bo‘ladi. Interkultural tafakkur, ya’ni ikki yoki undan ortiq madaniy kodlar o‘rtasida erkin muloqot qila olish qobiliyati tarjimaning adekvatligiga bevosita ta’sir qiladi. Tarjimon maqsad til o‘quvchisiga begona bo‘lgan hayvon obrazlarini tushunarli, mazmunan mos va stilistik jihatdan ekvivalent shaklda yetkazishi uchun keng lingvomadaniy bilimga ega bo‘lishi zarur.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda zoomorfik metaforalar turli madaniy tizimlarda qanday shakllanishi, ular orqali milliy kodlarning qanday uzatilishi va tarjima jarayonida madaniy konnotatsiyalarni saqlash muammolari tahlil qilindi. O‘zbek, rus va ingliz tillaridagi hayvon obrazlarining semantik va baholovchan farqlari ularning tarixiy-madaniy ildizlari bilan belgilanadi. Tillararo qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatdiki, zoomorfik metaforalar ko‘pincha to‘liq ekvivalentga ega bo‘lmaydi va bu tarjima jarayonida semantik siljish yoki madaniy yo‘qotishlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tarjimada literal usuldan tashqari funksional ekvivalent, adaptatsiya, deskriptiv tarjima va kompensatsiya strategiyalarini qo‘llash zarur. Tadqiqot zoomorfik metaforalarni adekvat tarjima qilish tarjimonning lingvokulturologik kompetensiyasi, ya’ni madaniy konnotatsiyalarni chuqur anglash darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

⁷⁴ Sharipov A. Symbolic Animal Imagery in Uzbek Culture // Journal of Central Asian Studies. – Tashkent, 2018. – P. 42–58.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Телия В. Н. *Русская фразеология: семиотика, семантика и прагматика*. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 284 с.
3. Арутюнова Н. Д. *Язык и мир человека*. – М.: Наука, 1999. – 416 с.
4. Карасик В. И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Волгоград: Перемена, 2004. – 477 с.
5. Кубрякова Е. С. *Когнитивная лингвистика*. – М.: РГГУ, 2004. – 215 с.
6. Maslova V. A. *Lingvokulturologiya*. – М.: Akademiya, 2001. – 208 s.
7. Чернейко Л. О. *Семантика и метафора в современном языке*. – М.: Флинта, 2010. – 312 с.
8. Sharipov A. *Symbolic Animal Imagery in Uzbek Culture // Journal of Central Asian Studies*. – Tashkent, 2018. – P. 42–58.